

**HOFIZ TANISH AL-BUXORIYNING “ABDULLANOMA”
 (“SHARAFNOMAYI SHOXIY”) ASARI VA
 UNING TARIXIY AHAMIYATI**

**HAFIZ TANISH AL-BUKHARI'S "ABDULLANOMA"
 ("SHARAFNAMAI SHAKHIY") AND ITS
 HISTORICAL SIGNIFICANCE**

Karimov Xasanjon Ulug’bek o’g’li

*Andijon davlat pedagogika instituti,
 Ijtimoiy fanlar kafedrasi o’qituvchisi
 xkarimov.1120@gmail.com*

Olimova Zulfiyaxon Ibrohimjon qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar
 fanlar va san’at fakulteti Tarix yo’nalishi 3-bosqich talabasi
 zulfiyaolimova98@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’z davrining yirik muarrixlaridan biri hisoblangan Hofiz Tanish al-Buxoriyning “Abdullanoma” (“Sharafnomayi shohiy”) asari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan va Movarounnahrning XVI asr davr tarixiga oid bo’lgan voqealari atroflicha muhokama qilingan va uning tarix fani uchun qimmatli bo’lgan jihatlari ochib berilgan.

Kalit so’zlar: “Abdullanoma” asari, Movarounnahr, Rudakiy, Kamoliddin Binoiy, ijtimoiy hayot, Mo’g’uliston, tarixnavislik, Buxoro, Mir Muhammad al-Buxoriy,

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о творчестве Хафиза Таниша аль-Бухари, одного из крупнейших историков своего времени, «Абдуллонома» («Шарафномайи Шахи»), а также о событиях, связанных с историей Моваруннахра в 16 веке. подробно рассмотрены и раскрыты ценные для науки аспекты его истории.

Ключевые слова: труд «Абдуллонома», Моваруннахр, Рудаки, Камалуддин Бинай, общественная жизнь, Монголия, историография, Бухара, Мир Мухаммад аль-Бухари,

Annotation: This article provides detailed information about the work “Abdulla-noma” (“Royal Chronicle”) by Hafiz Tanish al-Bukhari, one of the greatest historians of his time, and discusses in detail the events related to the history of Movarounnahr in the 16th century, revealing its valuable aspects for the science of history.

Keywords: “Abdulla-noma”, Movarounnahr, Rudaki, Kamoliddin Binoi, political changes, Mongolia, historiography, Bukhara, Mir Muhammad al-Bukhari,

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION)

Yirik muarrix va o‘z davrining taniqli shoirlaridan biri Hofiz Tanish al-Buxoriy qalamiga mansub “Abdullamona” (“Sharafnomayi shoxiy”) asari O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tarixshunosligining qimmatli manbalaridan biri hisoblanadi. Asarning muallifi XVI asrda yashab ijod qilgan va yurtimizda tarixnavislik ilmining rivojlanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan. Hofiz Tanish al-Buxoriy 1549-yil Buxoroda mansabdor oilasida tug‘ilgan va otasi Mir Muhammad al-Buxoriy Buxoro xonligining nufuzli kishilaridan biri hisoblangan va 1550-yil Koshg‘arga ketib o‘sha yerda vafot etgan. Hofiz Tanish al-Buxoriy o‘z davrining bilimli va ma‘lumotli kishilaridan biri bo‘lib, u 1584-yil Abdulaxonning amaldorlaridan biri bo‘lgan Qulbobo ko‘kaldoshning tavsiyasi bilan hukmdorning shaxsiy voqeanavis tarixchisi bo‘lib xizmat qiladi.

Hofiz Tanish al-Buxoriy “Abdullamona” (“Sharafnomayi shoxiy”) asari bilan tarixda qolgan shaxsdir. Kitobda O‘zbekiston, Qozog‘iston, shuningdek, Afg‘oniston va Eronning XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi ham bayon qilingan bo‘lib, bu xalqlar o‘rtasidagi madaniy, siyosiy, savdo, diplomatic munosabatlar haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirib o‘tadi. Undan tashqari asarda Buxoro xonligi bilan Eron, Hindiston, Qoshg‘ar va Rossiya o‘rtasidagi munosabatlar haqida ham ma‘lumotlar keltirib o‘tadi. Hofiz Tanish al-Buxoriy asarni XVI asrning 80-yillarida yozib tugallanganligi haqida zamondoshlaridan Mutribiy aytib o‘tadi. Ushbu asarda Firdavsiy, Rudakiy, Sa‘diy, Kamoliddin Binoiy, Mushfiqiy, “Qur‘oni karim” oyatlari va shunga o‘xshagan buyuk shaxslarning she‘riy parchalari keltirilgan. Kitobda siyosiy voqealar bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy mavzularga doir ma‘lumotlar ham keltirib o‘tilgan. Shu jumladan soliq, iqto, suyurg‘ol, xiroj, ixrijot, tog‘ar kabi davlat tayanch birliklari ham keltirib o‘tilgan.²⁴

“Abdullanoma asari asosan Abdullaxon II tavallud topgan yilidan to‘vafot etgan vaqtiga qadar ya‘ni, 1533-yildan 1588-yilgacha O‘rta Osiyo, Qozog‘iston va qisman Afg‘oniston va Xurosonda bo‘lib o‘tgan siyosiy voqealarni o‘zida jamlagan nodir asar hisoblanadi. Asarning 46 varaqdan iborat muqaddima qismi ilgari yozilgan asarlar asosida yozilgan bo‘lib, unda Abdullaxon II ning nasl-nasabi, ota-bobolari, XV va XVI asrning 1-choragida Mo‘g‘ulistonda sodir bo‘layotgan siyosiy o‘zgarishlar qisqacha bayon qilinadi. Hofiz Tanish al-Buxoriy o‘zidan ilgari yashab o‘tgan taniqli tarixchilar: Rashididdin, Mirxond, Sharafiddin Ali Yazdiy va Abulxasan Nishopuriy asarlaridan keng foydalanganini ochiq aytadi. Hofiz Tanish Buxoriy dastlab o‘z asarini ikki qism (maqola) dan iborat qilib tuzmoqchi bo‘lgan. Birinchi maqolada Abdullaxonning tarixi, ikkinchi maqolada esa xonning oliyanob fazilatlarini, uning davrida yashagan saxslar, vazirlar, olim va shoirlarning tafsilotini bayon qilmoqchi bo‘lgan. Lekin, asarning ikkinchi qismi yozilmay qolgan. Fikrimizcha, Abdullaxon vafotidan keyinroq mamlakatda boshlangan ur-yiqitlar asarni tamomlashga imkon bermagan.²⁵

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ И МЕТОДОЛОГИЯ /LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY)

²⁴ <https://Arxiv.uz> sayti.

²⁵ B.A.Ahmedov. “Abdullanoma” asariga yozgan sharhi.

Keyingi yillar davomida ushbu asarni rus tilida nashr qilish bo'yicha Rossiyaning Sankt-Peterburg shahridan bo'lgan sharqshunos olimi M.A.Salohiddinova katta ishlar olib bormoqda. Bu esa bu kitobni yosh kitobxonlar orasida targ'ib qilishga yordam beradi. Uning birinchi jildi 1983-yilda Moskvada chop etilgan. Bu nodir asar xanuzgacha o'zbek yoki boshqa birorta Yevropa tilida to'liq holda nashr etilmagan. I.I.Umnyakovning ma'lumot berishicha, "Abdullanoma" 1917-yildagi Oktabr to'ntarishi arafasida L.A.Zimin tamonidan rus tiliga tarjima qilina boshlangan va qisman 1918-yili Toshkentda bosib chiqarilgan. Lekin bir narsani ham aytib o'tish kerak. L.S.Zimin tez orada O'zbekistondan ketib qolishi bilan bu ishlar to'xtab qolgan. I.I.Umnyakov va L.A.Ziminning tarjimasini "Abdullanoma"ning uchta nusxasiga va o'sha davrga oid bo'lgan boshqa turli xil qo'lyozmalarga, jumladan, Mahmud ibn Valining "Baxr ul-asror fi-manoqib ul-axyor" degan qimmatli asariga qiyosiy taqqoslash asosida bajarilganligi haqida ham aytib o'tadi. B.B.Bartold 1924-yilda Boku shahrida bo'lgan paytida L.A.Zimin tarjimasini va "Abdullanoma" haqidagi boshqa materiallarni to'plab, nashr qilish zarurligini takidlagan edi. Afsus bilan aytishimiz mumkinki bu ish bajarilmay qolib ketgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti 1950-yildan boshlab Osiyo tarixiga doir muhim va qimmatli asarlarni o'zbek va rus tillarida nashr qilishga kirishdi. Shu o'tgan davr mobaynida ulardan faqatgina ba'zilar bosilib chiqdi. Bularning ichida nashr etilmay qolganlari ham bo'ldi. Lekin, nashr qilingan bu asarlarning barchasi asosan Ashtarxoniylar sulolasi hukmronlik qilgan davr (1602-1753) va qisman Temuriylar davriga oiddir. "Sharafnomayi shohiy" ning qo'lyozma nusxalari yurtimiz va chet eldagi sharq qo'lyozmalari saqlanayotgan bir qancha kutubxonalarda mavjud. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida uning ikkita nusxasi mavjudligi anqlangan. Ulardan biri XVI asrda ko'chirilgan. Ikkinchisi esa qisqartirilib tahrir qilingan nusxasi bo'lib, XIX asrda ko'chirilgan va "Abdullanoma" bazi hollarda esa "Zafarnomayi Abdullaxon" nomi bilan nomlangan. Sankt-Peterburgda ushbu asarning 3 ta nusxasi mavjud bo'lib, ulardan biri Rossiya Fanlar akademiyasi Osiyo xalqlari institutining Sankt-Peterburg bo'limida hozirgi kungacha saqlanib kelinmoqda. Bu nusxasi qo'lyozmalarning eng nodiridir. Lekin uning kim tarafidan ko'chirilganligi va ko'chirilgan sanasining vaqti ko'rsatilmagan. Shu institutning ilmiy ishlar bo'yicha faoliyat yurituvchi xodimi M.A.Salohiddinovaning fikricha u 1654-55 yillarga qadar ko'chirilgan. Lekin unda keltirigan ba'zi bir belgilarga qarab, asar bundan ancha ilgari, taxminan 20-25 yil ilgari ko'chirilganligini aniqlash mumkin. Muallif asarning ikkinchi qismini tugatgandan so'ng ikkinchi qismini yozishga kirishganligi ma'lumdir. Lekin bu asar muqaddimaning kengaytirilgan varianti bo'lib, unda asosan oldingi davrda o'tgan xalqlar to'g'risidagi tarixiy asarlarni tuzishlari bayon qilingan.

"Sharafnomayi shohiy" ning Boku va Dushanbeda saqlanayotgan nusxalari ham ancha mukammal hisoblandi. Lekin aytib o'tishimiz kerakki, Bokuda saqlanayotgan nusxasining qimmatli tomoni shundan iboratki, uning boshlanish qismiga noma'lum bo'lgan muallif tarafidan yozilgan mustaqil bir tarixiy asar qoshib yozib qo'yilgan. U 104 varaqdan iborat hisoblangan mazkur asar Shayboniylar tarixi, Abdulxayrxonning o'g'li shayx Haydarxon davri ya'ni XV asrning 70-yillaridan to Muhammad Shayboniyxonning Samarqand shaxrini

bo'ysundirishigacha bo'lgan davr tarixini o'z ichiga oladi. Unda Abulxayrxon vafot etganda keyin ko'chmanchi o'zbeklar davlatida kuchayib ketgan o'zaro kurashlar, Shayboniyxon va uning atrofida kuchayib ketgan o'zaro feodal kurashlar, Shayboniyxon va uning atrofida to'plangan boshqa o'zbek sultonlari haqida batfsil ma'lumotlar berilgan.

NATIJALAR (PEZYULTATY / RESULTS)

“Abdullanoma” asarining yozilishi natijasida Muhammad Shayboniyxon va uning atrofida to'plangan boshqa bir qancha o'zbek sultonlarining Dashti Qipchoq, Turkistonda Shayboniyxonning bobosi hisoblangan Abulxayrxonning dushmanlari bilan bevosita olib borgan janglari, shu yillarda ko'chmanchi o'zbeklar bilan Temuriylar sultonlar – Sulton Ahmad, Sulton Mahmud o'rtasidagi o'zaro siyosiy aloqalar hamda O'rta Osiyoning ko'chmanchi o'zbeklar hujumi arafasidagi siyosiy holati atroflicha yoritilgan. Lekin shuni ham aytib o'tish kerakki, ushbu asarni yaada chuqurroq tekshirishlar natijasida mazkur tarixiy asar Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma” asarining to'liq nusxasi ekanligi aniqlandi. Mazkur nusxa Muhammad G'ani tomonidan 1878-1879-yilda ko'chirilgan. “Abdullanoma”ning nusxalari Angliyaning Britaniya muzeyida va Eronda ham mavjudligi aniqlangan. Britaniya muzeyidagi nusxa Boku, Dushanbe va Sankt-Peterburgdagi nusxalardek mukammal hisoblanib, 1824-yilning 22-yanvarida qatag'on qabilasidan bo'lgan mirza Qo'shmuhammad ibn Toshmuhammadey tomonidan ko'chirilgan hisoblanadi. Asarning Erondagi 2 ta nusxasi XVIII asrda ko'chirilgan. Lekin u to'liq emas.

“Sharafnomayi shohiy” qofiyalashgan nasr shaklida yozilgan yozilgan bo'lib, unda til uslubi nihoyatda og'ir hisoblanadi. Asar o'xshatish, istioralarga jda boydir. Masalan, “... har biri qorong'u kechada jon oluvchi o'q bilan chumoli (ning) ko'zini va ilon (ning) ko'ksini urib teshadigan, yashin nishonli nayzasi (ning) shu'lasi bilan dushmanlarning otoshdoniga olov yoqadigan bit to'da (lashkar) bilan jang boshladilar. (Misra): Nog'oraning kuchli ovozi osmon xushsiz bo'lib qoldi. Bu falak charxi yulduzni paxta qilin qulog'iga tiqdi”. “Shu sababdan, arkoni davlat va (a'lo) hazratning (boshqa) a'yonlari nard o'yinini to'xtatdilar va urush palosini yig'ishtirib qo'lini jangu jadaldan tortdilar”²⁶

Biz to'xtalb o'tmoqchi bo'lgan yana bir muhim masalalardan biri shuki o'sha yillari o'zbek xonlari va Turkisya sultonlari o'rtasidagi munosabatlardir. “Abdullanoma”da mazkur munosabatlarga doir ba'zi qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz. Bunda Usmonli turklar sultoni Sulaymon I (1524-1566) ga qarshi birlashib ittifoq tuzilganligi va ular Erondagi Safaviylar sulolasiga qarshi birgalikda kurash olib borishga kelishib olganliklari aytilgan. Jumladan, yana shunday ittifoq Shayboniyxon bilan turk sultoni Boyazid II o'rtasida ham bo'lganligi aniqlangan.

Hofiz Tanish o'z asarida XVI asrning 2-yarmida Boburiylar imperiyasi (Hindiston) bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, shu jumladan, O'rta Osiyo davlatlaribilan Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalariga doir ayrim qimmatli ma'lumotlarni ham keltirib o'tgan. O'sha davrda Movarounnahr hukmdori Abdullaxon bilan Boburiylarning podshohi

²⁶ Hofiz Tanish al-Buxoriy. “Abdullanoma” asari.

Akbar o‘rtasida ham siyosiy munosabatlar bo‘lgan. Bularning zaminida asosan, Badaxshon, Shimoliy Afg‘oniston va Xuroson uchun kurash harakatlari yotadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ /DISCUSSION)

Hofiz Tanish al-Buxoriy o‘zining asarida yuqorida bayon qilingan tarixiy voqealarni, ya’ni Movarounnahrning XVI asrdagi siyosiy holatini batafsil yoritib berdi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, bu asar hukmron sinfnining maqsad va manfaatlarini ko‘zlab yozilgan: unda Abdullaxon va uning atrofidagi feodallar guruhlar ko‘klarga ko‘tarilib maqtalgan. Shunga qaramay, bu asar O‘rta Osiyo, Qozog‘iston va Xurosonning XVI asrdagi siyosiy hayotini o‘rganishda qimmatli manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. "Abdullaxon" ning tarixiy manba sifatida afzalligi shundaki, u asosiy tarixiy voqealarni obyektiv yoritib bergan. Shu jihatdan uni Juvayniy va Rashididdinning asarlariga qatoriga bamalol qo‘ysa arziydi.²⁷ Ushbu asarning e‘tiborga molik jihati yana shundaki, bu asarda turli xil oyat, xadis va arab tilidagi iboralari ham ko‘p uchraydi. Muallif bo‘lib o‘tgan voqealarni nasr va nazm bilan bayon qilgan. Bu – she‘rlar, ruboiylar, maxsus ikkilik va to‘rtlik baytlar, masnaviy, qit‘alar va marsiyalardan iborat. Bu she‘rlarning juda ko‘pchiligi Hofiz Tanish al-Buxoriyning o‘ziga tegishli bo‘lib, zo‘r mahorat bilan yozilgan hamda badiiy jihatdan yuksakdir. Shu sababdan ham bu asar yillar davomida tarix uchun qimmatli manba bo‘lb kelmoqda. Bu asarda XVI asrda O‘rta Osiyoning boshqa chet davlatlar bilan bo‘lgan munosabatlari haqida ham ba’zi ma’lumotlar berilgan. Jumladan, XVI asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo bilan Rossiya o‘rtasida olib borilgan savdo munosabatlari haqida "Abdullanom"da faqat Abdullaxon tomonidan Moskvaga yborilgan elchilarning 1583-yilda qaytib kelganliklari va ularning Moskvadan tuyalarga juda ko‘plab o‘q-dori, ov qushlari hamda boshqa matolar olib kelganliklari haqida hikoya qilinaidi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/ CONCLUSION)

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, "Abdullanoma" ("Sharafnomayi shohiy") asari O‘rta Osiyo xalqaarining XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘rganishda muhimahamiatga ega hisoblanadi. Asar aniq faktik ma’lumotlarga boyligi, tarixiy voqealarni atroflicha yoritishi bilan o‘sha davrning boshqa tarixiy manbalaridan butunlay ajralib turadi. Shuuning uchun ham mazkur asar uzoq yillardan buyon bir qancha tarixchilarning diqqat e‘tiborini o‘ziga qaratib kelmoqda. Ushbu kitobni kitobxonlar orasida keng targ‘ib qilish va asarni yanada chuqurroq o‘rganish uchun bir necha marotaba nashr etilgan va chet ellik olimlarni ham o‘ziga jalb qila olgan. Bu kitob XVI asrda Movarounnahr tarixini, shu jumladan Abdullaxon II ning faoliyatini yanada kengroq o‘rganishimiz uchun qimmatli manba bo‘lib kelmoqda. Shunday qilib, Hofiz Tanish Buxoriyning ushbu asari Markaziy Osiyoning o‘rta asrlar davri tarixini yoritish bilan shug‘ullanib kelayotgan barcha mutaxassislariga ozmi-ko‘pmi yordam berib kelmoqda.

²⁷ B.A.Ahmedov. "Abdullanoma" asariga yozgan sharhi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov B.A. “Abdullanoma” asariga yozgan sharxi.
2. Hofiz Tanish al-Buxoriy. “Abdullanoma” asari.
3. Ilhomov Z. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2022.
4. Xasanjon, K. (2024). ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING HAYOTI VA IJODI. “BOBURNOMA” ASARINING MAZMUNI. *PEDAGOGS*, 70(2), 37-40.
5. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O’. Vatan tarixi. Toshkent. 2010.
6. www.Ziyo.uz kutubxonasi.
7. <https://uz.wikipedia.org> sayti.
8. <https://Arxiv.uz> sayti.